



ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA UCHRAYDIGAN EVFEMIZMLAR, ULARNING XUSUSIYATLARI (“ASROR BOBO” VA “O’JAR” HIKOYALARI ASOSIDA)

X.U.Urokov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti Urgut filiali assistenti

Mardonova Sug'diyona Nasibillo qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti Urgut filiali 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14800691>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 28- Yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 31- Yanvar 2025 yil

KEY WORDS

Abdulla Qahhor, Asror bobo, o'jar, Ultarmalik qochoq, soldat, olomon, Yodgor, samovar, mayiz bo'lmoq, qariyalar, bola tarbiyasi, oq ichmoq, moliya tili, miyaning suyilishi.

ABSTRACT

Har bir kitobxon uchun asar o'qish, undan o'ziga kerakli didaktik tarbiyaviy xulosalarni olish, albatta, zavqli. Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Asror bobo” hikoyasidagi tarbiyaviy jihatlar, urush davrida insonlarning bir-birlariga bo'lgan mehr-muhabbati va “O'jar” hikoyasida ikki oshnaning masxara darajasidagi “nodon”lik qilish tasvirini ko'ramiz, hikoyalardagi evfemizmlarning qo'llanilish sabablari va ularning xususiyatlarini o'rganishga harakat qildik.

Abdulla Qahhor didaktik va satirik hikoyalar ustasi ekanligini anglab yetish kitobxondan katta tajriba talab qilmaydi, chunki uning hikoyalari o'ziga xos uslub bilan yozilganligi uchun boshqa yozuvchilar ijodidan ajralib turadi. Uning hikoyalari yaqin o'tmish va yozuvchi zamonidagi voqealarni talqin etadi. Adib asarlari mazmunan teranligi, yuksak haqqoniyliги, badiiyatining o'tkirligi bilan ham alohida o'ringa ega. Abdulla Qahhorning epik tasvir mahoratiga oid yana bir fazilatini ta'kidlab o'tish kerakki, yozuvchi hikoyalarida shaxs taqdiri muhit, sharoit bilan hamda omma hayoti bilan mustahkam bog'liq holda beriladi, shaxs taqdirining shakllanishi-yu yo'nalishini belgilashda bu omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Abdulla Qahhorning “Asror bobo” hikoyasi o'zbek adabiyotining yorqin namunalaridan biri bo'lib, unda yozuvchining badiiy mahorati, til boyligi va qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Hikoyada bayon qilingan voqealar hayotga yaqinligi bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi hamda urush yillari odamlar bir-birlari bilan mehribon, shafqatli va o'zaro yaqin ekanligini ko'rsatadi. Hikoyani tahlil qilib borar ekanmiz, avvalo, asarning bosh qahramoni bo'lgan Asror bobo obraziga to'xtalib o'tamiz. Yozuvchi obraz orqali insonning o'z hayotiga, jamiyatdagi o'rniga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Qahramonning ichki kechinmalari, fikrlari va orzu-umidlari hayotga yaqin tasvirlangan. Adib hikoyada evfemizmlarni, ya'ni so'zlovchi nazarida qo'pol, noqulay bo'lgan so'z va ifodalar o'rnida ularga ma'nodosh bo'lgan emotsional betaraf so'z va ifodalarni qo'llaydi[3]. Bu usul yozuvchining xalqona tilga yaqinligini, mahoratini va obrazlarni jonliroq yaratishdagi qobiliyatini ko'rsatadi. “Asror bobo” hikoyasi o'zi kichik bo'lsa-da, keng qamrovda mushohada etiladigan asarlar qatoriga kiradi. Asror bobo urush yillarida front orqasida fidoyilik ko'rsatgan oddiy kishilar vakilidir. U asarda o'zi bilib-bilmay qilgan xatosi uchun qishlog'idan qochib ketishga

majbur bo'ladi, natijada esa "ultarmalik qochoq" deb odamlar orasida nom qoldirgan. Bu evfemistik birikma biror falokat, sabab tufayli o'z joyi, Vatanini tashlab qochib, o'zga joy, yurtida kezuvchi, bo'luvchi shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Asror bobo ham mana shunday hayotida ba'zi yo'l qo'ygan xatolarini ochiqchasiga aytmaydi, balki buni evfemistik ifodalar orqali o'quvchiga his ettiradi. Masalan, qahramonning keksalikka nisbatan qilgan mulohazalarida "qarilik"ni bevosita keltirmasdan urush vaqtida yoshi ulug' insonlarga "traktorning g'ildiragi" o'xshatishini ishlatadi, bunga qo'shimcha tarzda, "pichoqqa ilinmaydigan kunlar" kabi yumshoqroq, xalqona tasvirlardan foydalanadi. Bu so'zlar bilan xalqni birdamlikka, mehnatsevarlikka, bir tan-u bir jon bo'lib, front ortida bo'lsa ham, jangchilarimizga yordam berishga undaydi. Hikoyadagi ba'zi ziddiyatli voqealar yoki ijtimoiy masalalar haqida yozuvchi to'g'ridan to'g'ri gapirmasdan, ularni yumshoqroq, mazmunli iboralar orqali tasvirlaydi.

Hikoyada Asror boboning o'g'liga ism qo'yishda ham evfemik so'zdan foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Usta Mo'min, rahmatlik, xat bilar edi, kitob ko'rib, bolaning otini *Yodgor* qo'ydi. "O'z yurtida qochoq bo'lib yurgan kunlaringdan yodgor bo'lsin" deb shunday ism qo'yishadi. *Yodgor – biror shaxs yoki voqea-hodisani eslatib turuvchi narsa, nishona, esdalik* kabi ma'nolarni bildiradi. Yozuvchi Asror boboning ma'naviy qiyofasini ochishda uning o'g'li Yodgordan qora xat kelishi voqesidan juda o'rinli foydalangan. Ota o'g'lining o'limi haqidagi xabardan qattiq eziladi. Biroq u o'zidan ham ko'ra ko'proq kampirini o'ylaydi. Bu mudhish xabarni eshitsa, kampiri chiday olmasligidan xavotirlanib, qora xatni ayoliga bildirmaydi. Buning ustiga, o'zini hech narsadan xabari yo'qday, quvnoq ko'rsatishga urinadi, oxir-oqibat esa kampir ham bu mudhish xabarni eshitib, u ham Asror bobo tutgan yo'lni qiladi. Ular bir-birlariga shunchalar mehribonligini suhbatlari davomida ko'rishimiz mumkin. Hikoyada o'zbek xalqining boy og'zaki nutqi va iboralari mohirona qo'llangan. Abdulla Qahhor xalqona iboralar, maqol va matallardan foydalanib, qahramonning ichki dunyosini va atrof-muhitni jonli tasvirlagan. Bu hodisani Haydar ota Asror bobo xonadoniga kelganda, unga qarab "mayiz bo'libsan" deb aytadi. Bu evfemizmni qahramonning ko'ngliga og'ir botmasligi uchun ishlatadi, ya'ni unga *qorayibsan, oftob uribdi* deyish o'rniga *mayiz bo'libsan* deb uning holatini kulgiga oladi. Bu esa asarga milliylik va o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Hikoyadagi Haydar ota va kampir ham asar g'oyasini ochishda bevosita ishtirok etadi. Asarga yana bir milliy uyg'unlik beruvchi holat borki, u ham bo'lsa, Asror boboning ichini yeb bitirayotgan g'am-anduhlarini biroz bo'lsa ham tark etishiga yordam beradigan joy "samovar" da ishlashni o'ziga odat qiladi. Bu yerdagi *samovar* so'zida ham evfemik hodisa bor. Bu so'z *choyxona* so'ziga ma'nodosh, aynan ko'pchilik insonlar choy ichib, tamaddi qilib, hordiq chiqaradigan jamoat joyini tushunadi. Jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar, qadriyatlarining eskirishi yoki yangi davrning oldingi odatlarni siqib chiqarishi masalalari hikoyada bevosita aytilmaydi. Yozuvchi bu holatlarni ham evfemizmga oid so'zlar orqali ifodalab, kitobxonni bahs-munozaraga, o'ylashga, fikrlashga chorlaydi. Masalan, asarda ishlatilgan *xalqqa olomon, askarga soldat, janjalga g'ulu* so'zlarining ishlatilishini ham zamon talabiga muvofiq evfemizmlar qatoriga qo'shishimiz kerak, chunki hikoyada jamiyatning eski va yangi qadriyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar markaziy o'rinda turadi. "Asror bobo" hikoyasida evfemizmlar yozuvchining badiiy mahoratini xalqona tilda chuqur ildiz otganligini va insoniylikni yumshoq, nozik bir uslubda ifoda etish san'atini ko'rsatadi. Evfemizmlar orqali yozuvchi nafaqat qahramonning ichki

dunyosini ochadi, balki kitobxonni hayotga qiziqishini oshiradi va asar ta'sirchanligini ta'minlab beradi.

Abdulla Qahhor – hajviy hikoyalar ustasi. U hajviy va yumoristik hikoyalarida qahramonlar xarakteri, dunyoqarashi, fe'l-atvoridagi ijtimoiy illat sifatida bartaraf etilishi zarur bo'lgan kamchiliklarni, ba'zan yengil-yelpi tuzatish bo'lgan xato va yetishmovchiliklarni ko'rsatadi. "O'jar" hikoyasida mashhur o'zbek artisti Mirshohid Mirqobilovning uyida bo'lib o'tgan voqeani tasvirlaganman. Voqeaning ishtirokchilari Mirshohid, uning o'n ikki yoshlar chamasidagi o'g'li va o'zim. Sirasini aytganda, voqea hikoyaning zamirida bo'lgan ma'noga ega emas edi. Kuldirishga g'oyatda mohir bo'lgan Mirshohid hikoyada ko'rsatilganidek masxara darajasida "nodon"lik qilgani yo'q, shu rolni "o'ynagan", shu bilan mening xayolimni o'sha vaqtda band qilib yurgan mavzuga shakl topib bergan edi", - deb hikoya tarixi bilan kitobxonni tanishtirib o'tadi [1]. Adibning "O'jar" hikoyasi yozuvchining badiiy mahorati va hayotni chuqur tahlil qilish qobiliyatini ko'rsatadigan asarlaridan biridir. Hikoya o'zbek xalqining xarakteriga xos jihatlar, inson ruhiyatining murakkabligi va oddiy hayotning qiziqarli tasvirlari bilan boyitilgan. Undagi so'z qo'llash mahorati, ya'ni kam so'z qo'llab, olam-olam ma'no-mazmun bilan boyitilganligini ko'rishimiz mumkin. Hikoyadagi qahramonlar o'jar keksalarning hayotga bo'lgan qarashlari va o'ziga xos xarakterlari jonli tasvirlangan. Ularning har biri o'ziga xos va o'zbek xalqining ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Asarning bosh qahramonlari Qutbiddinov va Zargarovlar ham bir-birlariga yon qo'shni, ham dilkash oshna bo'lishadi. Hikoyani tahlil qilar ekanmiz, ularning o'zaro muloqot jarayonida evfemizlarning hikoya qahramonlarini fikrlash doirasini, ularning munosabatlarini ifodalaydi. Asarda ikki ulfatchi yig'ilgan vaqtda har doim ikki mavzudan chetga chiqmasligi: biri – shu ketishda shahrimiz yana ellik yildan keyin qanday bo'lar ekan; ikkinchisi – so'nggi vaqtlarda fan kishilarni yoshartirish to'g'risida nega indamay qo'ydi?

Bu safargi o'tirishida ular "Bola tarbiyasi" mavzusida juda ham qizg'in suhbat olib boradi. Asardagi *har yomonning bir "ammo"si bo'lishi kerak, har yaxshining bir "lekin"i* birikmasini maishiy evfemizmlar turiga kiritishimiz mumkin. Bu gap orqali yozuvchi inson har doim mukammal bo'la olmasligini, har bir yomon insonning ham qandaydir yaxshi tomoni borligini, yaxshining esa yomon tomoni mavjudligini kitobxonga uqtirmoqchi bo'ladi. "O'jar" hikoyasi inson va jamiyat munosabatlaridagi ziddiyatlarni ko'rsatadi.

Asardagi evfemizmlarni tahlil qilar ekanmiz, *aroqqa* nisbatan *oq ichmoq* so'zini ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari, asarda shaxmat o'ynash to'g'risida juda ham qizg'in bahs bo'lib o'tadi. Shaxmatning ijobiy va zararli tomonlarini ikki oshna bir-birlariga tushuntiradi. Bu orqali yozuvchi qahramonlarning hayoti va turmush tarzini ham ifodalab o'tadi. Ularning ichki kechinmalari, o'z fikrlarida qat'iylik qilishi, boshqalarning maslahatlariga quloq solmaslik kabi jihatlari ochib beriladi. Asarda *shaxmat o'ynash natijasida miyaning suyilib qolishi* kabi evfemik birikmadan bilishimiz mumkinki, Qutbiddinov va Zargarov shaxmat haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas. Ular o'zlaring mulohazalari bilan bolalarining shaxmat o'ynashiga yo'l qo'ymaydi. Hikoyada ijtimoiy ziddiyatlar, xususan, avlodlar o'rtasidagi tafovutlar va munosabatlar bevosita aytilmasdan, evfemistik ifodalar orqali tasvirlangan. Masalan, "Zamon o'zgardi" yoki "Hozirgi yoshlar boshqacha" kabi iboralar jamiyatdagi o'zgarishlarni yumshoqroq va kinoyali tarzda aks ettiradi. Bu yozuvchining ijtimoiy masalalarni mulohazali va estetik tarzda ifodalash mahoratini ko'rsatadi. Kexsa va yosh avlod o'rtasidagi munosabatlar hikoyada bevosita tanqid qilinmasdan, evfemizmlar

orqali tasvirlangan. Masalan, “*Bizning paytimizda bunday emas edi*” iborasi avlodlar o’rtasidagi, qarashlardagi farqni ko’rsatadi, lekin bu ayblash sifatida emas, balki yumshoq bir xotira sifatida berilgan.

Hikoyadan o’rin olgan yana bir evfemik ma’no *moliya tili* so’zi orqali adib daromad hosil qilish va uni sarflashda ishlatiladigan pulni kinoyaviy tarzda emas, balki yumshoqroq holda ifodalashga harakat qilgan. Evfemizmlarni tahlil qilar ekanmiz, asarda *maktablarga nisbatan tarbiya o’choqlari* birikmasining ishlatilishi orqali yozuvchi asar qahramonlarining kinoyali tarzida ifodalaydigan fikrini yumshoq tarzda ochib bergan. “O’jar” hikoyasi inson va jamiyat munosabatlaridagi ziddiyatlarni ko’rsatadi. Hikoya orqali yozuvchi inson tabiatidagi o’jarlik, o’z fikridan qaytmaslikning jamiyatdagi o’rni va uning salbiy oqibatlarini badiiy tahlil qiladi. “O’jar” hikoyasida evfemizmlar hikoyaning badiiy kuchini oshirish bilan birga qahramonlarning ichki dunyosini chuqurroq ochishga yordam beradi. Yozuvchi evfemistik iboralar orqali murakkab ijtimoiy va insoniy muammolarni yumshoq, xalqona va hazilomuz tarzda ifodalab, kitobxonni asarni tahlil qilishga va mulohaza yuritishga chorlaydi. Bu evfemizmlar hikoyaga tabiiylik va hayotiylik baxsh etadi.

Adib hikoyalari o’zining ixcham va ravonligi bilan qalbgga oson va tez kirib bora oladi. Asarlarida birorta so’z ortiqchaligi sezilmaydi, ixcham iboralardan tashkil topgan tasvirlar ma’nodorligi bilan istalganidan ko’proq mazmun kasb etadi. Hikoyalarini yozuvchi xalqning hayotidan olingan badiiy lavhalar bilan boyitadi. Odamlar turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor fojyaviy mohiyatni ko’rish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida gavdalantirish Abdulla Qahhor hikoyanavislik san’atining eng muhim jihatlaridir.

Abdulla Qahhor qisqa hajmli ayrim hikoyalari kitobxonni oylab o’ylashga majbur qila oladi. Jamiyatdagi hamma uchun qiziq, dolzarb mavzularni qalamga oladiki, umuman kitob o’qimaydigan inson ham uning hikoyalarini o’qisa, asarda olib chiqilgan mavzu, shubhasiz, uni ham o’yga toldiradi. Qahhor asarlari hamma toifadagi insonlarni o’ziga jalb qila oladi. Adib hikoyalarining ko’pchiligi real hayotiy asosga ega, ular yozuvchining turmushda o’zi ko’rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilardan yozib olingan.

Xulosa qilib aytganda, mahorat bilan yaratilgan hikoyalarda qahramonlarning yoshi, qaysi ijtimoiy tabaqaga xos ekanligi, ma’naviy darajasi, odobi, xarakteri, qaysi davrga mansubligi ham o’z ifodasini topadi. Hikoyalarda tasvir uslub sodda, ammo mazmunan boy. Yozuvchi voqealarni ortiqcha bezaklarsiz, hayotiy voqeliklar orqali tasvirlagan, bu esa o’quvchiga qahramon bilan yanada yaqinlashish imkonini beradi. Asar qahramonlari o’zida bir qator ijtimoiy va ma’naviy ma’nolarni mujassamlashtiradi. Ular faqatgina qahramon emas, balki o’tmish va zamonaviylik, qadriyatlar va yangilanish o’rtasidagi kurashni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Qahhor. Asror bobo va O’jar (hikoya). – T., Adabiyot uchqunlari, 2018.
2. X. Qodirova. O’zbek tilida evfemizm va disfemizm. – T., Bookmany print, 2022.
3. A. Omonturdiyev. Bir so’z lug’ati. – Termiz: Jayhun, 1996.
4. X.U.Urokov. Daryo.uz matnlarining sotsiologiyistik tahlili. YANGI O’ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI 1 (4), 389-397